

№ 2 (6)
2025



ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASI
NÓKIS FILIALI

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI / ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА / BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSI

ILIMY-METODIKALÍQ JURNAL





**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW,
ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT MINISTRIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI
Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА
Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART
Scientific-methodical journal

№ 2(6)/2025

SHÓLKEMLESTIRIWSHI:

Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali

Bas redaktor: – Allanbaev Rudakiy, *professor*

Juwaplı xatker: – Kamalova Difuza, *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent.*

REDKOLLEGIYA AGZALARI:

OZODBEK NAZARBEKOV – Ózbekstan Respublikası Mádeniyat ministri, professor;

AZIZBEK TURDIEV – Ózbekstan Respublikası Mektepge shekemgi hám mektep bilimlendiriw ministri orınbasarı, filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

KAMOLIDDIN URINBAYEV – Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası rektori, professor;

AMANULLA RIZAYEV – kórkem ónertanıw ilimleriniń kandidati, professor;

HIKMAT RAJABOV – professor;

ORAZALI TOSHMATOV – professor;

BAXT AZIMOV – pedagogika ilimleri kandidati, docent,

MUHAMMAD TOLAXOJAEVA – kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

MARFUA XAMIDOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

BOLTABOY SHODIYEV - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, docent;

OZODA TOSHMATOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

SAYYORA ĞAFUROVA – professor;

OYDIN ABDULLAEVA – professor;

IRODA MIRTALIPOVA – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

PARAXAT MAMUTOV – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

QURBANBAY JARIMBETOV – filologiya ilimleriniń doktori, professor;

ALIMA BERDIMURATOVA – filosofiya ilimleriniń doktori, professor;

ZIYADA BEKBERGENOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc), professor;

ARTIQBAY EREJEPOV – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

JANABAY MARZIYAEV – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám ingliz tillerinde baspadan shıǵarıladi. Jurnal Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciýalar agentligi tárepinen mámleketlik dizimnen ótkerilgen. №047569 4-oktyabr, 2022-jıl.

Ózbekstan Respublikası Joqarı Attestaciya Komissiyasınıń 2024-jıl 30-iyuldaǵı 358-sanlı qararı tiykarında jurnal 17.00.00-Kórkem ónertanıw ilimleri jónelisi boyınsha dissertaciya nátiyjelerin baspadan shıǵarıw ushın arnalǵan jetekshi ilimiy jurnallar qatarına kiritilgen.

Redakciya mánzili: Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali Sh.Abdirov 2-jay.

E-mail: ozdknf@edu.uz, UZDK_Nukus@exat. Tel: 551020540 Veb-sayt: <https://science.uzdknf.uz/>

ISSN-2181-4112

AN’ANAVIY YO’NALISHDAGI XONANDALIK ASARLARI BOSHQA MILLAT VAKILLARI IJROCHILIGIDA

Tursunov E.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi

Annotatsiya: Maqolada kishining mentaliteti haqida so‘z boradi. Ijrochining o‘zga millat asarlarini kuylay olish mahoratiga yuksak baho beriladi. Uzoq yillik pedagoglik mehnat faoliyati davomida to‘plangan mulohazalar keltiriladi. Xonanda sifatida o‘zbekona asarlarni yuqori darajada ijro etuvchi boshqa millat vakillarining ahamiyati haqida fikr bildiriladi. Maqolada qo‘shimcha tarzda til va aksent bo‘yicha qarashlar ham keltirilgan. An’anaviy xonandalik asarlarini ijro eta olishda o‘zbekona romanslarni kuylashning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: mentalitet, an’ana, aksent, ko‘hna asarlar, o‘zbek romanslari, nola, qochirim.

Аннотация: В статье говорится о менталитете человека. Высоко оценивается способность исполнителя петь произведения другой национальности. Приводятся наблюдения, собранные в течение многих лет педагогической работы. В статье высказывается мнение о значимости представителей других национальностей, исполняющих узбекские произведения на высоком уровне, как певцов. В статье также приводятся дополнительные взгляды на язык и акцент. Подчеркивается важность пения узбекских романсов в исполнении традиционных певческих произведений.

Ключевые слова: менталитет, традиция, акцент, старинная ария, узбекские романсы, нола, кочирим.

Abstract: The article talks about the mentality of a person. The performer’s ability to sing works of another nationality is highly appreciated. The observations collected during many years of pedagogical work are presented. The article expresses an opinion on the importance of representatives of other nationalities who perform Uzbek works at a high level as singers. The article also presents additional views on language and accent. The importance of singing Uzbek romances in performing traditional singing works is highlighted.

Key words: mentality, tradition, accent, old classical arias, Uzbek romances, nola, qochirim.

Kirish. Har bir davlat va millatning o‘z urf-odati, an’anasi, tili, mentaliteti bo‘lgani kabi o‘zbek xalqining ham o‘z qadriyati, urf-odatlari bor. Aynan mentalitet ular orasida farqlarni yuzaga keltiruvchi omildir. **“MENTALITET**

[nem. Mentalität < lot. mens, mentis – aql, idrok] Millat, jamiyat, jamoa yoki biror shaxsning tarixiy shakllangan tafakkur salohiyati, madaniy darajasi va ularning hayot qonunlarini tahlil etish quvvati, ma'lum bir ijtimoiy sharoitlardagi aqliy qobiliyati, ruhiy kuchi" [2; 580]. Shunday ekan ma'lum bir madaniyat vakili bo'la turib boshqa bir madaniyat negizida shakllangan musiqiy durdona asarlarni ijro eta olish ijrochining haqiqiy professional salohiyatidan darak beradi.

Asosiy qism. Ijodiy va mehnat faoliyati davomida shunga amin bo'lindiki, O'zbekiston professional ijrochilari hech qiyinchiliksiz xorijiy musiqa durdonalari bo'lmish vokal asarlarni ijro eta oladilar. Misol tariqasida italyan, olmon, ingliz, fransuz, rus va boshqa tillarda bitilgan go'zal asarlar o'zbek xonandalari tomonidan ijro etib kelinmoqda. Buning uchun xorijiy tillarni yaxshi bilish ijrochilarga qo'l keladi. Bunda, albatta, aksent va talaffuz masalalari bo'ladi. Ammo tinimsiz mehnat va o'z ishini sevish orqali bu muammo ham o'z yechimini topadi. Chet el xonandalari ham o'zbek milliy asarlarini o'rganib ijro etmoqchi bo'lsalar va bu borada qattiq mehnat olib borsalar ularning ham ijrosida milliy asarlarimizni tinglash va bahramand bo'lish imkoniyatiga ega bo'lamiz. **An'ana** bilan sug'orilgan asarlar tinglovchini doimo o'ziga maftun etib kelgan. "An'anaviy yakka xonandalik san'ati" tushunchasining *an'anaviy* iborasi "bir tomondan meros qoldirish va ijtimoiy vorislikni, ikkinchi tomondan esa yangilanish va navqironlikni" anglatadi" [3; 5]. Yuqorida aytilganidek, o'zga millat vakillari ijrosida milliy, an'anaviy asarlarni tinglash kishiga o'zgacha zavq ulashadi. Misol tariqasida quyidagi ijrochilarni keltirish mumkin:



1-rasm. Yasmina Omar-Mun.



2-rasm. Larisa Moskalyova

Ijrochilar chet tilida yaratilgan asarlarni kuylashayotganda bir muammo ularni doimo o'ylantirib turadi. Bu aksent masalasidir. O'zga tilda yozilgan asarni ijro etishdan avval uning talaffuz qoidalariga e'tibor bermoq lozim. “**AKSENT** (lot. accentus – urg'u) – 1) urg'u; 2) urg'u belgisi; 3) begona, chet tilida gapirayotgan odamning talaffuzi.” [4; 189]. Qo'shimcha tarzda turli til kurslariga qatnash va o'zlashtirish orqali ijrochilar o'zlaridagi kamchiliklarni bartaraf etishlari mumkin.

Yana muammoli holatlardan biri: Ko'rik-tanlovlarda xonandalar asarlarni talab darajasida ularni buzmagani holatda ijro eta bilishi kerak. **Ko'hna asarlar** (ya'ni “старинная ария”) mualliflari 17-18-asr Yevropa kompozitorlari: Gaydn, Glyuk, Gendel, Kyui, Jordano, Motsartgacha., ushbu kompozitorlarning asarlarini buzib ijro etish mumkin emas. Sababi bu asarlarda notalarning to'la-to'kisligi ta'minlangan. Agar bu asarlar yozilganidek ijro etilsa ularning go'zalligi to'liq mujassam bo'ladi. Biroq shunday bir paradoks borki, **o'zbek romanslari** aynan yozilganidek ijro etiladigan bo'lsa, ularning jozibadorligi yo'qoladi. Ijro sayoz bo'lib qoladi. Notalarning ba'zida o'zbekona nola va qochirimlarni to'laligicha o'zida mujassam eta olmagan bunda sabab qilib keltirilishi mumkin. Ammo ularda ham forshlaglar ma'lum bir darajada berilgan va bu ijrochidan alohida e'tiborni talab qiladi. Kim bo'lmasin ularni hisobga olmagan xonandalar ijrosi “bo'sh” va “begona” bo'lib eshitiladi. Bunday holatda aynan o'zbekona ijrodan xabardor bo'lish bu asarlarning kerakli joyida kerakli musiqiy bezaklarni qo'llay olish imkoniyatini beradi. Buning uchun ushbu melizmatik bezaklar haqida ma'lumotga ega bo'lish kerak bo'ladi: “**NOLA** (ناله – yig'lash) – ashula aytganda so'zning bir

bo'g'inida ovozni titratib cho'zish" [1; 231]. Qochirim so'zining o'zgacha ma'nolaridan tashqari quyidagi izohi ham bor: "**QOCHIRIM** ...O'zbek an'anaviy musiqasida oddiy va murakkab musiqa bezaklarining umumiy ifodasi: kuyga jilo beruvchi qisqa tovush (ohang)lardan tashkil topadi" [2; 349]. So'nggi yillarda kompozitorlarning yangi avlodi tomonidan bu masalaga, ya'ni akademik xonandalikda melizmatikani aks ettirish borasida ishlar olib borilmoqda. Bu esa avvalgidek notada yozilgan asarlarning ijro etilishida sayoz bo'lib qolayotgan ijro talqinlarning nafaqat oldini oladi, shu bilan birga o'zbek bo'lmagan xonandalar uchun ham ma'lum bir darajada kuylashda aniqlikni hosil qiladi.


O'zbek romanslarini ijro qilish uchun xonandalar milliy asarlarni tushuna bilishi lozim. Kamida 20% milliy asarlarni his etgan holda kuylash lozim. Shunda bir savol tug'iladi. O'zbek bo'lgan ijrochi ushbu romanslarni mahorat bilan ijro etmoqda. Lekin boshqa millatga mansub ijrochi bu asarlarni ijro eta olmasligi mumkinmi? Bu savol unchalik ham to'g'ri emas. Yuqorida aytib o'tilganidek, Yasmina Omar-Mun (koreys) kabi ijrochilar o'zbek milliy maqomlarini mahorat bilan kuylay olishadi. Qobiliyatli kishilar uchun esa bu jarayon yanada oson kechadi. O'zbek opera xonandalari italyan kompozitorlari asarlarini italyanlardek ijro qilib kelishmoqda. Rus kompozitorlari asarlarini ham maromida kuylashmoqda. Tallaffuz bo'yicha xatolar bo'ladigan bo'lsa ularga ko'rsatmalar beriladi. Agar bu xatolar ijrochilar ishtirok etayotgan tanlovlarda ham yuz beradigan bo'lsa, ularning ballari tushiriladi. Lekin ba'zida boshqa millatga xos ijrochilar o'zbek milliy asarlarining talaffuzini buzib kuylashsa bunga e'tibor berilmayotir. Bu ham bir muammo hisoblanadi. Agar xonandalar qobiliyatli bo'ladigan bo'lsa, ular qaysi millat ijrochisi bo'lishidan qat'i nazar o'zbek milliy asarlari ustida ko'p mehnat qilib yaxshi natijalarga erishishlari mumkin. Ushbu holatga misol qilib Larisa Moskalyova ijrosidagi "Soqiynomai savti kalon"ni keltirish mumkin. O'zbek musiqa san'ati tarixida o'chmas iz qoldirgan Tamaraxonim ham o'zbek laparlarini mahorat bilan ijro etganlar.

Akademik xonandalik yo'nalishi vokal san'atining ustuni hisoblanadi. Nafasni to'g'ri yo'lga qo'ygan holatda har bir millatga xos bo'lgan asarlarni yuqori darajada kuylash mumkin. "Jonon ko'rinur", "Kel sevgilim", "Kecham tong otdi" kabi asarlar akademik xonandalik yo'nalishida ta'lim oluvchilarning o'zbekona ijroda mahorati oshishi uchun dastur bo'la oladi.

Boshqa millat vakillari o'zbekona milliy asarlarni kuylash istagini bildirganlarida ularga aynan akademik xonandalik yo'nalishidan bu masalaga kirib borishlari tavsiya etiladi. Chunki akademik xonandalik yo'nalishida yozilgan yoki "akademiklashtirilgan" milliy asarlarda melizmatika nisbatan ixcham bo'ladi.

Melizmatika eng asosiy jihat hisoblanadi. Usiz ijro chala va “bo’sh” bo‘lib qoladi. Shundan so‘nggina ular to‘liq an’anaviy ijroga o‘tishlari mumkin.

An’anaviy xonandalik yo‘nalishida kuylovchi san’atkorlarimiz xorijiy mamlakatlarda ijod safarlarida bo‘lishganlarida chet el tinglovchilarining qalblaridan joy olishlari va olqishlarga sazovor bo‘lishlari har bir o‘zbekistonlikni xursand qiladi. Milliy asarlarimizni tinglash uchun jiddiy e’tibor beruvchi chet elliklar orasida aynan shu asarlarni o‘rganish istagida bo‘lgan insonlar ham yo‘q emas. Misol tariqasida quyidagi jarayonni keltirishimiz mumkin. 2025-yilning 28-iyun kuni Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati institutiga Yaponiyadagi “O‘zbek madaniyati elchisi” Mashu Komazaki tashrif buyurdi. U tashrifi davomida O‘zbek milliy maqomi va musiqasini yanada chuqurroq o‘rganish hamda Yaponiyada o‘zbek milliy musiqa madaniyatini chuqur targ‘ib qilish maqsadida ekanligini bildirdi. Shu bilan birga Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati institutida magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim olish istagi borligini ham ma’lum qildi¹¹.



Bu kabi yangiliklar O‘zbek milliy musiqasining, madaniyatining yutug‘i hisoblanadi. Kelajakda shu singari talabgorlar yanada ortishi, xorijliklarga an’anaviy asarlarimizni o‘rgata oladigan yuqori malakali mutaxassislarga talab yanada kengayishi kutilmoqda. Bu juda mas’uliyatli jarayon. Bunda mutaxassislardan chet tilida mukammal ta’lim bera olish ko‘nikmasi talab etiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yurtimiz kadrlari barcha sohalarda bo‘lganidek madaniyat va san’atda ham katta marralarni zabt etmoqdalar. Buning

¹¹ Surat Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati institutining rasmiy telegram sahifasidan olindi.

natijasida, albatta, chet elliklar O‘zbek taraqqiyotiga katta qiziqish bildirmoqdalar. O‘zbek musiqa madaniyatining chet ellarda keng targ‘ib etilishi va ayni damda xorijiy davlatlar musiqa madaniyatining ham O‘zbekistonda keng o‘rganib tahlil etilishi xalqlar o‘rtasida o‘zaro do‘stlik va madaniyat almashinuviga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Quyidagi jarayonning faol kechishida jonbozlik ko‘rsatuvchi har bir malakali mutaxassis millat yuzi sifatida muhim rol o‘ynaydi, madaniyat rivojiga katta hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Акбаров И. Музыка луғати. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Иккинчи ва бешинчи жилдлар. – Тошкент: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Давлат илмий нашриёти, 2020.
3. Yo‘lchiyeva M. An’anaviy yakka xonandalik. – Toshkent: “Musiqqa” nashriyoti, 2018.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 1. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2000.

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Султанова Е. ФОРТЕПИАННОЕ ТРИО ФРАНСИСА ПУЛЕНКА В КОНТЕКСТЕ ФРАНЦУЗСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ МУЗЫКИ XX ВЕКА	3
2	Миркасымова Э.З. ИСПОЛНИТЕЛЬСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КАК ВАЖНЕЙШИЙ ЭТАП ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МУЗЫКАНТА	9
3	Мирсолихова Х.М. МУСИҚИЙ АСАР УСТИДА ИШЛАШ ЖАРАЁНИ ҲАҚИДА	16
4	Тожибоев С. ИСЛОМ ДИНИ БИЛАН БОҒЛИҚ МАРОСИМ ВА БАЙРАМЛАРДАҒИ МУСИҚИЙ АНЪАНАЛАР	21
5	Abatbaeva R.A. KOMPOZITORLAR IJODIDA BALLADA JANRINING SHAKLLANISHI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	34

KÓRKEM ÓNER

6	Allanbaev R.O. “SUYMAGANGA SUYKALMA” MUSIQALI DRAMASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	41
7	Аббарова М. ЎЗБЕКИСТОН ВА ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН АЁЛ КОМПОЗИТОРЛАРИНИНГ ТАҒАҚҚУРИ МОҲИЯТИ	52
8	Aytmuratov B.K. AKTYOR INDIVIDUALLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ROL YARATISH USLUBIYATINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	59
9	Azimov K. DIRIJYORLIK TEXNIKASINING NAZARIY MASALALARI	68
10	Eminov N. “ALPOMISH” MUSIQALI DRAMASIGA AYRIM CHIZGILAR	73
11	Gulmanov I. DÁSTÚRIY HÁM ZAMANAGÓY MUZÍKADA DÁP ÁSBABÍNÍN RAWAJLANÍW BASQÍSHLARÍ	80
12	Jaqsımuratova B. VOKAL ATQARIWSHÍLÍGÍNÍN TARIYXIY EVOLYUCIYASÍ	86
13	Karimova N. FESTIVAL TUSHUNCHASI VA ULARNIG ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	92
14	Kazakbayeva M. ARIYALAR USTIDA ISHLASH JARAYONIDA JO‘RNAVOZNING AHAMIYATI	98
15	Kutekeeva R. QORAQALPOG‘ISTON OPERA SAN’ATIDA MILLIY OBRAZLAR TALQINI	104

16	Matjanova M. ATQARIWSHILIQ MADENIYATIDA KONCERTMEYSTERDIN TIYKARGI WAZIYPALARI	110
17	Sharipov N. ZAMONAVIY FANDA AYOL OLIMALARNING O'RNI	117
18	Osman Kopadze. THE SOFT POWER IMPACT OF TURKISH TELEVISION SERIES ON UZBEK SOCIETY	122
19	Paxratdinova L. SKRIPKANING KELIB CHIQISHI VA IJROCHILIK AN'ANALARI	130
20	Shukurov A. TEATR SAN'ATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUV	136
21	Tursunov E. AN'ANAVIY YO'NALISHDAGI XONANDALIK ASARLARI BOSHQA MILLAT VAKILLARI IJROCHILIGIDA	147
22	Измаилов А.М. ФОРМИРОВАНИЕ ОРКЕСТРОВОЙ ФУНКЦИИ ЗВУКОВЫСОТНЫХ УДАРНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В XVI–XVII ВЕКАХ	153
23	Давыдова Т. СТИЛЕВЫЕ ОСОБЕННОСТИ СИМФОНИЧЕСКИХ ОПУСОВ ТУЛКУНА КУРБАНОВА	165
24	Миркасымова Э.З. ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ И СТИЛЕВЫЕ ПРИНЦИПЫ ФОРТЕПИАННЫХ ЦИКЛОВ Д.САЙДАМИНОВОЙ.	170
25	Charshemov J.A. QARAQALPAQ KOMPOZITORLARININ XOR USHIN JAZILGAN SHIGARMALARI	177

MUZIKA PEDAGOGIKASI

26	Djumaniyazov U.M. XALQ MUSIQA IJODIYOTINI O'RGANISHGA PEDAGOGIK YONDASHUV	187
27	Yusupaliyeva D. YOSHLARNING MA'NAVIY TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA MADANIYAT VA SAN'ATNING O'RNI VA AHAMIYATI	196
28	Muratbaev A. ORFF METODI TIYKARIDA MUZIKA SABAQLARIDA SAZ ASBAPLARDAN PAYDALANIV	204
29	Мелькумова Э.И. ФИЛОСОФСКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ НАУЧНОГО ПОЗНАНИЯ: СТРУКТУРА, ЛОГИКА И ТРАНСФОРМАЦИЯ В КОНТЕКСТЕ СОВРЕМЕННОСТИ	210
30	Абдуллаева А. РАБОТА НАД ФОРТЕПИАННЫМИ ПЬЕСАМИ Р. ГЛИЭРА В КЛАССЕ ОБЩЕГО ФОРТЕПИАНО	217

31	Saidumarov I. ESTRADA XONANDALIGI SAN'ATI HAMDA VOKALDAN DARS BERISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI	223
----	--	-----

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

32	Бердиниязова Н.К. МЕҲНАТ ЖАМОАСИДА КАСАБА УЮШМАСИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ	228
33	Пердебаева К.Р. БАСПАСӨЗ ДИЗАЙНЫ ҮСТИНДЕ ИСЛЕҰ (Газетаның арнаўлы санлары анализи мысалында)	234

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikalıq jurnal

